

KETMA KET TARJIMADA PRAGMATIK YONDASHUV
PRAGMATIC APPROACH IN CONSECUTIVE INTERPRETATION
ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОМ
ПЕРЕВОДЕ

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Tarjimonlik fakulteti, Ingliz tili tarjima nazariyasi
kafedrasi o‘qituvchisi Farida Ne‘matova Kamol qizi
feyakahhorova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu ish ketma-ket tarjimada pragmatik yondashuvning ahamiyatini o‘rganadi. Tarjima jarayonida pragmatik aspektlar, ya'ni nutq konteksti, so‘zlovchining niyati va madaniy farqlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotda pragmatik yondashuv yordamida tarjimonlarning kommunikativ maqsadlarni qondirish va madaniy moslashuvni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pragmatik yondashuv orqali tarjimaning sifatini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: pragmatik yondashuv, ketma-ket tarjima, tarjima usullari, interpretatsiya, pragmatik lingvistik, metodologiya, kontekstual tushunish, til kompetensiyasi, madaniy xabardorlik, muloqot.

Abstract: This study explores the significance of pragmatic approaches in consecutive translation. In the translation process, pragmatic aspects such as speech context, the speaker's intention, and cultural differences play a crucial role. This research analyzes the role of translators in fulfilling communicative purposes and ensuring cultural adaptability through a pragmatic approach. The findings indicate that employing pragmatic strategies can enhance the quality of translation.

Key words: pragmatic approach, consecutive translation, translation method, interpretation, pragmatics, methodology contextual understanding, language competence, cultural awareness

Аннотация: Данная работа исследует значимость прагматического подхода в последовательном переводе. В процессе перевода прагматические аспекты, такие как контекст речи, намерение говорящего и культурные различия, играют ключевую роль. В этом исследовании анализируется роль переводчиков в удовлетворении коммуникативных целей и обеспечении культурной адаптивности с помощью прагматического подхода. Результаты показывают, что применение прагматических стратегий может повысить качество перевода.

Ketma-ket tarjimada pragmatik yondashuv – bu tarjima jarayonida tilning kommunikativ maqsadlari va kontekstiga e'tibor qaratib, tarjimaning ma'no jihatidan to'g'riligini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuvda tarjimon

nafaqat leksik va grammatik jihatlarni, balki nutqning pragmatik aspektlarini, ya'ni gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy va madaniy omillarni ham inobatga oladi. Quyida ketma-ket tarjimada pragmatik yondashuvning asosiy jihatlari keltirilgan:

1.Kontekstni chuqur tahlil qilish: Har bir nutq akti o'zining o'ziga xos kontekstida shakllanadi, va ketma-ket tarjimon kontekstni to'g'ri tushunib, uni maqsad tilida qayta yaratishi zarur. Pragmatik yondashuvda til birliklarining aniq grammatik ma'nosi emas, balki ularning nutqiy funksiyasi e'tiborga olinadi. Misol: "Ushbu gapning ma'nosini o'rganishdan oldin, uning qaysi kontekstda ishlatilganini aniqlash zarur. Masalan, 'Men kutyapman' gapini ko'rib chiqaylik. Agar u sevgi kontekstida aytilsa, bu romantik bir hisni anglatishi mumkin. Ammo ish joyida aytilsa, bu kutish jarayonida professional xulqni anglatadi."

2.Kommunikativ maqsadga erishish: Ketma-ket tarjima jarayonida pragmatik yondashuv maqsad tilidagi auditoriyaga mos tarzda etkazishni talab qiladi. Bu esa ma'lum ijtimoiy-madaniy farqlarni hisobga olib, auditoriya tomonidan tushunarli va qabul qilinadigan shaklda tarjimoni taqdim etishni anglatadi. Misol: Jamoa loyiha ustida ishlayotganda. Loyiha rahbari: "Sen tadqiqotlarni olib borasan, sen esa taqdimot tayyorlaysan."

Maqsad: Jamoa a'zolari orasida vazifalarni aniq taqsimlash orqali loyiha muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash.

3.So'zlovchining niyatini aks ettirish: Ketma-ket tarjima qilinayotganda, pragmatik yondashuv so'zlovchining asl niyatini saqlab qolishga qaratilgan. Bu jarayonda tarjimon so'zlarning yuzaki ma'nosidan ko'ra ularning asl maqsadini tushinishi va uni aniq aks ettirishi kerak. So'zlovchining niyatini aks ettirish kommunikativ muvoqotning muhim jihati. Quyida bu jarayonga misollar keltiraman:1. Ruxsat so'rash Misol: O'quvchi darsdan keyin o'qituvchidan so'raydi. O'quvchi: "O'qituvchi, darsdan keyin biroz qoldirsam bo'ladimi? Ba'zi savollarim bor." Niyat: O'quvchi darsdan keyin o'qituvchidan yordam olishni xohlaydi.

4.Madaniy moslashuv va madaniyatlararo pragmatika: Tarjimon turli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rib chiqishi va tarjimaning madaniy moslashuvini ta'minlashi lozim. Turli madaniy pragmatik elementlar, masalan, hazil, iltifot, yoki tanqid madaniyatga qarab har xil talqin qilinishi mumkin, bu esa tarjimada moslashishni talab qiladi.

5.Ijtimoiy rollar va munosabatlarni tushunish: Ketma-ket tarjimada ishtirok etadigan tomonlarning ijtimoiy rollarini va ular o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tushunish va aks ettirish muhim. Pragmatik yondashuv bu rollarni va ularning ta'sirini hisobga oladi, shuningdek, bu munosabatlarni tarjimada qayta tiklaydi.

6. Tilning rasmiylik darajasi va nutq odobi: Ketma-ket tarjima qilayotganda pragmatik yondashuv rasmiylik darajasi, etiket va nutq odobini inobatga oladi. Har xil til va madaniyatlarda bu jihatlar o‘ziga xos bo‘lishi mumkin, shuning uchun tarjimon bu omillarni to‘g‘ri aks ettirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ketma-ket tarjimada pragmatik yondashuv tarjimonning nafaqat tilni bilishi, balki madaniy, ijtimoiy va kommunikativ omillarni chuqur tushunishi va ularni tarjima jarayonida qo‘llashi orqali yuqori sifatli tarjima ta‘minlashini talab qiladi. Shu tarzda, ketma-ket tarjimada pragmatik yondashuvni qo‘llash, tarjimonning til, madaniyat, ijtimoiy va kommunikativ omillarni birlashtirib, natijada yuqori sifatli, aniq va samarali tarjimani ta‘minlaydi. Bunday yondashuv, nafaqat tarjima jarayonida, balki muloqotda ham yaxshiroq natijalar olish imkonini beradi. Tarjimonlar bu yondashuvni amalga oshirish orqali o‘z ishlarida professionalizmni oshiradilar va tarjimaning mukammalligi yo‘lida muhim qadam qo‘yadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rakhimov, G. (2019). Pragmatik yondashuvlar va tarjimada madaniyat.
2. Tuxtasinov, I. (2018). Tarjima va madaniyat: muammolar va yechimlar. Tashkent.
3. Pym, A. (2010). Translation Solutions for Many Languages: Histories of a Failed Project. Universitat Rovira i Virgili.
4. House, J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge.
5. Baker, M., & Saldanha, G. (2008). Routledge Encyclopedia of Translation Studies. Routledge.
6. Venuti, L. (2012). The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge.